



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INTEGRATSIYALASH

Matyakubova Shirinjon Shavkatovna

*Termiz davlat Pedagogika instituti Boshlang'ich ta'limda
matematika va ona tili kafedrası magistranti*

Annatatsiya. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika o'qitishda integratsiyalash muhim ahamiyatga ega. Fanlararo integratsiya o'quvchilarga o'zlashtirilgan matematik bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lash imkoniyatini yaratadi, bu esa bilimlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Maqola boshlang'ich sinflarda o'qituvchilarga matematik ta'limda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llashda yo'l-yo'riq ko'rsatadi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinflar, matematika o'qitish metodlari, integratsiya, interfaol ta'lim, multimedia vositalari, fanlararo bog'liqlik, fikrlash, idrok, aqliy faoliyat

Аннотация. Интеграция важна при обучении математике учащихся начальных классов. Междисциплинарная интеграция предоставляет студентам возможность связать полученные математические знания с другими дисциплинами, что способствует более глубокому пониманию полученных знаний. Статья помогает учителям начальных классов применять современные педагогические подходы к математическому образованию и способствует повышению качества образования.

Ключевые слова: начальные классы, методика преподавания математики, интеграция, интерактивное обучение, мультимедийные средства, междисциплинарные связи, мышление, восприятие, умственная деятельность

Annatation. Integration is important in teaching mathematics to elementary students. Interdisciplinary integration provides students with the opportunity to associate acquired mathematical knowledge with other disciplines, which contributes to a deeper understanding of knowledge. The article guides teachers in elementary grades in applying modern pedagogical approaches to mathematical education and serves to improve the quality of Education.

Keywords: elementary grades, methods of teaching mathematics, integration, interactive education, multimedia tools, interdisciplinary connection, thinking, perception, mental activity

Matematika, boshlang'ich sinflarda o'qitilishi zarur bo'lgan fundamental fanlardan biridir. Ushbu fan orqali o'quvchilarga nafaqat matematik ko'nikmalar, balki analitik fikrlash, mantiqiy qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlari ham rivojlanadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion metodlarni qo'llash muhim o'rin egallamoqda. Integratsiya



matematika fanini o'qitishda nafaqat samaradorlikni oshirish, balki o'quvchilarning qiziqish va ishtiyoqini ham oshiradi.

Matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligi o'quvchilarining o'zlashtirish jarayonlarini bilan bog'liq. O'quv fanlararo aloqadorlikni aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi.

- tushunchalarni yaxlit bir tizimga umumlashtirgan holda ko'nikma va malakalarni uyg'unlashtirish;

- o'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash pedagogik psixologik tomonlarini aniqlash;

Har qanday vaziyatda matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining mujassamlashgan bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umumlashtirish, axborotlarni to'plash, taqlid qilish kabi aqliy operatsiyalar bosh miya faoliyatini boshqaruvchi psixologik-fiziologik jarayonlar hisoblanadi. Bosh miya faoliyatida mujassamlashgan axborotlar izchil qabul qilinadi. Axborotli tizimlarning vujudga kelishi matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligi asosida taqdim etilgan materiallarni o'zlashtirishga qaratilgan o'quv faoliyatining maxsuldorligini ta'minlaydi.

Bunday metodlar bilimlar va ularni idrok etish ko'nikmalarini takomillashtirish, ularni boshlang'ich sinf o'quvchisining o'quv faoliyatiga singdirish va egallangan bilimlarni umumlashtirish, ularning aqliy faolliklarini ta'minlash uchun zarur pedagogik-psixologik sharoitlar yaratadi. Bu har tomonlama matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligining ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchilik vazifalarini yaxlit tarzda amalga oshirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlarni yaratishga asos bo'ladi. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini o'quvchi egallaydigan bilimlarda o'z aksini topishi boshlang'ich bosqichlarda vaziyatli, qo'zg'atuvchi yoki rag'batlantiruvchi omil vazifasini bajaradi. Matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlashda o'quvchilarning egallagan bilimlari natijasida hosil bo'lgan tajribalari ularning idrokini boshqaradi.

Bilimlarni idrok etish natijasida o'quvchilarning ijodiy, mustaqil fikrlash, modellashtirish ko'nikmalari rivojlanadi. Bilimlarning fanlararo aloqadorlik asosida umumlashtirilgan tizimini o'zlashtirish natijasida o'quvchilarning aqliy faoliyati rivojlanadi, ko'nikma va malakalarining mahsuldorlik darajasi ortadi.

Matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligi asosida tarkib topgan bilimlarning umumlashgan tizimi muayyan o'quv mazmunining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Unda boshqa barcha aloqador o'quv fanlari mazmuni negizini tashkil etuvchi asosiy ko'rsatkichlar ham mavjud bo'ladi. O'quv fanlararo umumlashgan bilimlar boshlang'ich sinf



o'quvchilari aqliy faoliyatining yuqori ko'rsatkichlarini ta'minlaydi. Ularning harakatchanligi ob'yektiv asosga tayangan holda tashkil topgan munosabatlar tizimida boshlang'ich sinf o'quvchisining istiqbolni ko'ra olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining muayyan aloqadorlik zaminidagi fikrlashi undagi aqliy faoliyatning tizimli, dinamik xarakter kasb etishini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi aqliy faoliyatining muntazam rivojlanib borishi esa, o'zlashtirilgan bilimlar xarakteridan kelib chiqadi.

Matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligi asosida tashkil etilgan o'quv faoliyatini tahlil etish natijalari shuni ko'rsatadiki, bu jarayon faqatgina murakkab didaktik butunlikni hosil qiluvchi o'zaro aloqador elementlar shaklida mavjud bo'lmaydi. Tahlilning ichki mohiyati shundaki, narsa, buyum va hodisalarning tabiiy aloqadorlikka ega bo'lgan ichki xususiyatlari ochib beriladi. Matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligida bilim va tushunchalarning ichki mazmunini aniqlashda zarur bo'lgan nazariy tahlildan keng foydalaniladi. Bu esa nazariy umumlashmalarining hosil bo'lishiga asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining diqqati umumlashtirish jarayoniga jalb etilgan sari uning aqliy faoliyati rivojlanib boradi. Bu jarayonda boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z fikrlarini mustaqil harakatlar asosida umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligi ayni bir paytning o'zida o'quvchilarning bir necha o'quv fanini o'zlashtirishga undaydi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchisi fikrlash tarzining usullari uning aqliy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonida matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash asosida vujudga keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematikani boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligi asosida bilimlarni o'zlashtira olishi, muayyan o'quv fanidan bilimlar va harakatlar usullarini boshqasiga ko'chira bilish qobiliyati ularning idrok etish faoliyatlari mahsuldorligini ko'rsatadi.

Matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligi ta'minlangan sharoitda muayyan masalalarni yechishda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining fikrlash faoliyati bir qadar kengayganligini his etadilar. Matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligi asosida muayyan muammolarni yechishda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlari amalga oshirayotgan harakatlarni anglab yetishlari va o'quv materiallarini idrok etishimkoniyatiga ko'ra olingan natijalarni tahlil qilish hamda mahsuldor natijalarga olib keluvchi umumlashtirilgan harakatlarni mustahkamlash alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Дорофеев Г.В., Потапов М.К., Розов Н.Х. Пособие по математике для поступающих в вузы. М.: Наука, 1976. 640 с.



2. Мельников И.И., Сергеев И.Н. Как решать задачи по математике на вступительных экзаменах. Издание 2-е, исправл. М.: МП Азбука, 1994. 352 с.

3. Сборник конкурсных задач по математике для поступающих во втузы. Учебное пособие. / Под ред. М.И.Сканави. М.: Высшая школа, 1980. 541 с.